

**Murojaatlar bilan ishlash bo'limi xodimlari tomonidan
haftalik qilingan ishlar yuzasidan
MA'LUMOT**

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi ishonch telefoni(99 353 93 54)ga hafta mobaynida **246 ta** fuqarolardan murojaatlar bo'ldi. Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo'lgan fuqarolarga Sog'liqni saqlash vazirligidan kelgan "sms" xabarnoma yuzasidan hamda fuqarolarning **og'zaki murojaatlaridir.**

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasiga hafta mobaynida imtiyozga ega fuqarolardan umumiy **e'tirozli 8 ta murojaatlar** kelib tushdi.

- Jamg'arma ishonch telefoni orqali **4 ta og'zaki murojaatlar;**
- Jamg'arma manziliga **4 ta yozma murojaatlar.**

Shulardan:

Toshkent tibbiyot akademiyasi ko'p tarmoqli va **Samarqand davlat tibbiyot universiteti klinikalarida** hamda **Xorazm viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazida** imtiyozli yo'llanma bilan davolanayotgan bemorlar davolanish sifatidan, **Bolalar milliy tibbiyot markazida** imtiyozli yo'llanma bilan davolanayotgan bemor o'z hisobidan dori vositalari sotib olayotganligi yuzasidan Jamg'armaning ishonch telefoniga **og'zaki murojaatlar** qilishdi.

Ushbu murojaatlar bo'yicha shifoxona mas'ullariga va xududiy bosh mutaxassislariga telefon orqali ma'lumotlari berilib tibbiyot muassasa mas'ullari ogohlantirildi, **og'zaki murojaatlar ijobiy hal qilindi.**

Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida hamda **Andijon davlat tibbiyot instituti klinikalarida** imtiyozli yo'llanma bilan davolanib chiqqan bemorlardan davolanish jarayonida o'z hisobidan davolanish va dori vositalari uchun pul sarf harajat qilganligi, **Sirdaryo viloyati Guliston tumanida yashovchi ikki nafar fuqarolar Jamg'armadan moddiy yordam so'raganligi** yuzasidan **yo'zma murojaatlar kelib tushdi.** Ushbu murojaatlar Jamg'arma mas'ul xodimlari tomonidan o'rganish jarayonida.

**Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi
Matbuot xizmati.**